

Mustaqillik kuni



Har bir O‘zbekiston fuqarosi uchun 1-sentabr – ulug‘ va unutilmas sana. Bu kun Mustaqillik e‘lon qilingan, xalqimiz o‘z ozodligiga erishib, o‘z taqdirini o‘zi belgilashdek buyuk huquq va imkoniyatga ega bo‘lgan tarixiy lahzani yodga soladi.

1991-yil 31-avgustda suveren davlat – O‘zbekiston Respublikasi tashkil topgani tantanali ravishda e‘lon qilindi. 1-sentabr esa bayram – O‘zbekiston Respublikasining Mustaqillik kuni etib belgilandi. Mamlakatimiz xalq manfaatlarini ko‘zlab o‘z qonunlarini qabul qilgan holda mustaqil taraqqiyot yo‘liga o‘tdi. Bu kunda butun yurtimiz bo‘ylab bayramona kayfiyat hukm suradi, xiyobonlar va maydonlarda konsert dasturlari, xalq sayillari tashkil etiladi. Xalqimiz bayramni Vatanga bo‘lgan cheksiz g‘urur va iftixorni his qilgan holda keng nishonlaydi.

Mustaqillik mamlakatimizni iqtisodiy, madaniy, ilmiy, tibbiy rivojlantirish hamda milliy urf-odat va an‘analarimizni mustahkamlash imkonini berdi. O‘zbekiston hukumati har bir fuqaroga, insonlar hayoti yanada farovon bo‘lishi yo‘lida g‘amxo‘rlik ko‘rsatmoqda.

Mustaqillik xalqimizga boy tarixiy merosini anglash, urf-odatlari, tili va ma‘naviyatini qayta tiklash hamda porloq kelajakka bo‘lgan ishonchini mustahkamlash imkonini berdi.



O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev boshqa davlatlar bilan tinchlik va totuvlikda mamlakatimizni rivojlantirish yo‘lida tinimsiz harakat qilmoqda. Prezidentimiz rahbarligida yurtimizning har bir fuqarosi munosib hayot kechiradigan, yoshlar esa sifatli ta‘lim va rivojlanish imkoniyatlariga ega bo‘ladigan qudratli hamda kelajagi porloq davlat barpo etilmoqda.

*Bugun sening bayraming,
Aziz yurtim – O‘zbekiston!
Barchamizga baxsh etding
Ulug‘ quvonch, shodlik, shon.*



Hilpirayver bayrog‘im

Bayrog‘imiz to‘rt rangda:
Qizil, yashil, moviy, oq.
Menga oq rangi yoqar,
Hammasidan ham ko‘proq.
Oq rang insonlarga xos,
Odil, soflik belgisi.
Yashil rangi Vatanning
Qir-adirlar ko‘zgusi.



Qizil rangi ham inson
Tomirida oqqan qon.
Moviy rang o'lkadagi
Ko'm-ko'k musaffo osmon.
O'n ikki yulduz asli
Viloyatlar ramzidir.
Bu bayroq Vatanimiz
Chiroyidir, faxridir.



1. She'rda nima haqida so'z boradi?
2. Siz uchun Vatan nimani anglatadi?
3. She'rda bayroqning qaysi ranglari tilga olingan?
4. Moviy rang nimaning ramzi hisoblanadi?
5. Oq rang – odil, soflik belgisi, degan iborani qanday tushunasiz?
6. Qizil rang haqida nima deyilgan?
7. Bayroqda nima uchun o'n ikkita yulduz bor?
8. Nima uchun bayroq Vatanimiz chiroyi, faxri, deya aytilyapti?
9. Yurtimizga bo'lgan muhabbatingizni hozir qanday namoyon eta olasiz?



Mustaqillik kuni haqida bilganlaringizni so'zlab bering.



She'rni ifodali o'qishga tayyorlaning.

